Miao, F., & Holmes, W. (2023). Guidance for generative AI in education and research. UNESCO.

Ministry of Education of the People's Republic of China, & National Language Commission. (2021). Chinese proficiency grading standards for international Chinese language education (GF0025-2021).

Yan, L., Greiff, S., Teuber, Z., & Gašević, D. (2024). Promises and challenges of generative AI for human learning. Nature Human Behaviour, 8, 1839-1850. doi:10.1038/s41562-024-01866-5

Zhang, M. (2025). Chinese language education and the training of young sinologists in Uzbekistan. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 5(26), 189-193. doi:10.24412/2181-1784-2025-26-189-193

IJTIMOIY TARAQQIYOTDA INNOVATSIYALAR AHAMIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Akbar Saitqosimov
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, falsafa fanlari doktori. Jizzax, O‘zbekiston
saitkasimov71@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahonda ijtimoiy taraqqiyotda innovatsiyalarning o‘rni va roli kundan kunga dinamik ravishda o‘sib borayotganligi, inson va jamiyatning ijtimoiy hayoti va uning farovonligini o‘sishida innovatsiyalarning ahmiyati, xususan mamlakatimiz milliy yuksalishida innovatsiyalar rolining ijtimoiy-falsafiy tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, ilmiy tafakkur, ratsional dunyoqarash, innovatsiya, innovatsion jarayonlar, innovatsion rivojlanish, istiqbol.

Annotation. This article presents a socio-philosophical analysis of the role and significance of innovations in global social progress—a role that is dynamically expanding day by day—as well as their importance for the social life and well-being of individuals and society, with a particular focus on their contribution to the national advancement of our country.

Keywords: society, social progress, scientific thought, rational worldview, innovation, innovative processes, innovative development, future prospects.

Jahonda ijtimoiy taraqqiyotda innovatsiyalarning o‘rni va roli kundan kunga o`sib, ko`lami va imkoniyatlari kengayib bormoqda. Innovatsiyalar kishilik jamiyatining ilmiy tafakkur tarzining o‘sib, ijtimoiy hayotda insonlar uchun hayotiy zarur bo‘lgan mahsulotlar yetishtirib berishga qaratilgan maqsadlarning vujudga kelishi bilan o‘zining takomil bosqichiga yetmoqda. Mazkur jarayon innovatsion boyliklar yetishtirish bilan bog‘liq voqelik bo‘lib, iqtisodiy yuksalish tempini oshirish va kishilarning tobora rivojlanib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Jahonda haqiqatan ham kishilarning kundan kunga zamonaviy ehtiyojlari yuqori nuqtaga yetib, o‘z navbatida innovatsion omilning inson farovonligi tamoyillariga ijobiy ta`siri oshmoqda.

Mazkur innovatsion omillarning ijtimoiy hayotdagi roʻyobi insonning innovatsion tafakkur tarzining takomillashib borayotganligi bilan ham oʻziga xoslik baxsh etadi. Ratsional dunyoqarashning innovatsion tafakkur bilan uygʻunlashib borishi madaniy tamaddun yuksalishining epistemiologik jihatlarini namoyon etadi. Bu jarayonda insonning emotsional va kreativ salohiyatining oshishi, dunyoga yaratuvchanlik rakursi bilan qarash, zamon taqozosiga koʻra yangiliklar yaratish, pirovard natijaga koʻra mazkur bunyodkorlik faoliyatini inson turmushini yaxshilashga qaratishi innovatsiyalarning gumanistik tamoyillarni vujudga keltiruvchi fenomen sifatidagi mohiyatini belgilaydi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev qayd etganidek, "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi gʻoyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan boʻlsak, uni aynan innovatsion gʻoyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"[76].

Darhaqiqat, innovatsiyalarning insonparvar tamoyillar uchun xizmat qilishi insonning oʻz turmushidan qoniqish olishi, kelajakda farovon yashash sari intilishlariga ilhom beradi. A. Levkinaning so'zlariga ko'ra, "Gumanistik qadriyatlar va innovatsiyalarning faol va ijtimoiy tabiati nuqtai nazaridan, biz fanni jamiyatning uzoq muddatli hayotiyligi, ma'naviy va moddiy rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni tabiat bilan uyg'unlikda hal qilish uchun odamlarning maqsadli, hamkorlikdagi intellektual sa'y-harakatlari sifatida tushunishga e'tibor qaratamiz. Bizning fikrimizcha, bu yondashuv, bir tomondan, ilmiy loyihalar bo'yicha qo'shma loyihalarga asoslangan va tarmoq ishlarining keng tarqalganligi haqiqatini etarli darajada aks ettiradi, ikkinchi tomondan, gumanistik qadriyatlarga tayanib, barqaror, progressiv jamiyat rivojlanishi talablari va maqsadlariga javob beradi"[77].

Innovatsiyaning vujudga kelishi natijasida jamiyat rivojlana boradi, har bir sohada oʻziga xos sezilarli oʻzgarish va yangilanish jarayonlari sodir boʻladi, muayyan unsurlardagi shakl va mazmunning bir bosqichdan ikkinchisiga oʻtishi namoyon boʻladi. Muayyan yangi shakllarning paydo boʻlishi esa, jamiyat sohalarining bevosita oʻzgaruvchanlik va dinamik rivojlanishida muhim progressiv qadriyatlarni paydo qiladi. Bu esa, jamiyatning umumrivojlanishida ijobiy muvozanatni vujudga keltiradi, tizimlar faoliyatida barqarorlik kuzatila boshlaydi. Muayyan ob'ekt va sub'ekt oʻrtasidagi oʻzaro tigʻiz determinantlik va transformatsion holatlar asosida samaradorlik yoki ilmiy natijaning oshishi, ijobiy natijadorlik jarayonlarining kengayishi innovatsion takomilni aks ettiradi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan qaraganda, insonga xos boʻlgan yaratuvchanlik faolligi, iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash, xatti-harakatlaridan ilmiy natijalar olish, jamiyat bilan munosabatlarida oʻz bunyodkorlik an'analariga

[76] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //"Халқ сўзи" газетаси. 2017 йил 23 декабрь.

[77] Лёвкина А.О. Гуманистический подход к инновационному развитию общества // Ценности и смыслы. 2017. № 5 (51). С. 121.

sodiklik, insonning texnologik muhitga adaptatsiyasi barchasi innovatsion jarayonlarga xos bo‘lgan hatti-harakatlar hisoblanadi. Ratsional dunyoqarashga ega bo‘lgan, novatorlarga xos fikrlovchi, ayniqsa ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanuvchi kishilar buni aksioma sifatida qabul qiladi. O‘z ilmiy faoliyatidan natijalar olish, ishchanlik, faollik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni mutlaq yangi tartibda tashkil etishga olib keladi. Novatorlik qobiliyatiga ega bo‘lgan insonlar boshqa shaxslar bilan raqobatga kirishadi, u yanada yuqoriroq ko‘rsatkichlarga erishishga harakat qiladi, novatorlik fazilatlarini yanada oshiradi. Yu.Petrovskayaning ta’kidlashicha, “Zamonaviy dunyoda bilim raqobat ob'ekti bo'lib, ta'lim tizimi innovatsion shaxsni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib, u nafaqat individual xususiyatlarga ega shaxsni, balki jamiyatda innovatsion texnologiyalar sharoitida ular bajaradigan ijtimoiy ahamiyatga ega funktsiyalar va rollarning o'ziga xos to'plamini ham qamrab oladi. Bunday shaxslarning faoliyati bilim sohasini ijtimoiy faoliyatning turli sohalari bilan bog'laydi. Bularning barchasi insoniyat jamiyati rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichni ifodalaydi”[78].

Innovatsiya ijtimoiy-iqtisodiy arayonlarning o'zini o'zi tashkil etishi sifatida turli boshqaruv tizimlaridan moslashuvchan, o'z-o'zidan o'zgarishga o'tish jarayoni ham hisoblanadi. Bu jarayonda innovatsiya jarayoni tashqaridan emas, balki tizim ichida mavjud ilmiy resurslar va kadrlar salohiyati mavjudligi evaziga vujudga keladi. Mavjud murakkab jarayonlar har bir mamlakat yoki hududlarda o‘ziga xos milliy identlik asosida innovatsion salohiyat sifatida maydonga keladi, yangi g'oyalar va usullar paydo bo'ladi, bu esa yangi, samaraliroq tuzilmani yaratadi. Mazkur voqelik xududlarning ma’lum mahalliy sharoitlarda o'z tuzilishi va xatti-harakatlari o'zgartirishi orqali innovatsion moslashadigan tizimga o‘tish jarayoni ham hisoblanadi. V. Kapustinning so'zlariga ko'ra, "Zamonaviy global iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishi, shubhasiz, innovatsiyalarni jadallashtirish va innovatsion texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni keng tarqatishdir. Hozirgi kunda dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 70% innovatsion ishlab chiqarish va boshqaruv texnologiyalarida mujassamlangan yangi bilimlardan kelib chiqadi"[79].

Innovatsiyalarning jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan funksiyalari turli-tuman ijtimoiy muammolarni ham bartaraf etishga qaratilgan faoliyatda ham muhim vazifani bajaradi. Jamiyatdagi ba’zi ijtimoiy muammolarni tadqiq va tahlil etish, zamonaviy ilmiy konsepsiyalarni yaratishda innovatsion tizimning sinergetik asosdagi o‘z-o‘zini tashkillashtirish tamoyili muhim xususiyat bo‘lib hisoblanadi. I.Poplavskayaning fikricha, “Innovatsion siyosat va innovatsion tizim, o‘z navbatida, jamiyatning barcha quyi tizimlariga ham ta’sir ko‘rsatishi, ularning tuzilishini, yo‘nalishini, sifatini va aloqalar intensivligini

[78] Петровская Ю. Теоретико-методологические подходы и проблемы изучения инновационной личности как социального типа в условиях новой технологической революции. // Вестник науки Сибири. 2018. № 4 (31). –с.184.

[79] Капустин В. Синергетика социальных инновационных процессов. Москва, 2025. //https://spkurdyumov.ru/forecasting/sinergetika-socialnyx-innovacionnyx-processov.

o‘zgartirishi mumkin, natijada bu jamiyatda eski munosabatlar yo‘qolib, yangi rivojlanish salohiyatiga ega bo‘lgan yangi munosabatlar paydo bo‘ladi”[80].

Bu jarayonni tashkil etish birmuncha o‘ziga xos harakat mexanizmlariga ega bo‘lib, mehnat jamoalari, jamoat tuzilmalari yoki insonlardan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yechishda innovatsion faollikni talab etadi. Mazkur faollik ijtimoiy-iqtisodiy hayotda uchraydigan ba’zi muammolar va qarama-qarshiliklarning oldini olishda, jamiyatning rivojlanish maqsadlaridagi faoliyatini boshqarishda o‘z o‘rniga ega buladi. Mazkur innovatsion o‘zaro aloqadorlik ilm-fan va novatorlik yutuqlari asosida hududlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, innovatsion faoliyat ham muammolarni hal etish fonida takomillashadi, novatorlik faoliyatida inson yangidan-yangi ishlanmalarni yaratadi.

Jamiyat murakkab tizim sifatida doimiy o‘zgarishlarga uchrab, yangilanib boradi. Uning har bir sohasida innovatsion o‘zgarishlar yuz beradi. Innovator inson innovatsiyalarni asosiy harakatga keltiruvchi sub’ekti hisoblanadi. Inson intellekti innovatsion rivojlanishning har bir bosqichi qonuniyatlari asosida mavjud taraqqiyot ko‘lamiga moslashish uchun doimiy o‘zgaruvchan qobiliyatni namoyon etadi, bu esa innovatsion jarayonlarning ham vaqt va makon xususiyatiga ko‘ra o‘zgarib, takomillashib borishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu tariqa, innovatsiyalar inson va jamiyatning rivojlanishi, iqtisodiy farovonlikning asosiy mezoni bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotda harakatlantiruvchi funksiyani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //”Халқ сўзи” газетаси. 2017 йил 23 декабрь.

2. Лёвкина А.О. Гуманистический подход к инноватsионному развитию общества // Ценности и смыслы. 2017. № 5 (51). С. 121.

3. Петровская Ю. Теоретико-методологические подходы и проблемы изучения инноватsионной личности как социального типа в условиях новой технологической революции. // Вестник науки Сибири. 2018. № 4 (31). –с.184.

4. Капустин В. Синергетика социальных инноватsионных процессов. Москва, 2025. //https://spkurdyumov.ru/forecasting/sinergetika-socialnyx-innovacionnyx-processov.

5. Поплавская И.А. Специфика инноватsионного развития России: культурные предпосылки и социально-исторические условия формирования. //Вестник Московского университета. Сер.18. Социология и политология. 2014. № 4. -С. 88.

AI-DRIVEN INNOVATION OF THE INTERNATIONAL CHINESE COMPREHENSIVE COURSE FROM THE PERSPECTIVE OF MODERN HUMANITIES EDUCATION

[80] Поплавская И.А. Специфика инновационного развития России: культурные предпосылки и социально-исторические условия формирования. //Вестник Московского университета. Сер.18. Социология и политология. 2014. № 4. -С. 88.